

FARZAND TARBIYASIDA OILA VA JAMIYATNING INTEGRALLIK ROLI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-546-548>

Shokirjonova Omina Zoirjon qizi

*Oriental universiteti,
filologiyasi fakulteti: turk tili yo‘nalishi,
TF 401-guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: Annazarova Tamilla Dilshod qizi

*Oriental universiteti
Tillar-2 kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada farzand tarbiyasining samaradorligini ta‘minlashda oila va jamiyatning o‘zaro bog‘liq hamda integrativ ta‘siri ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Oilaning birlamchi ijtimoiylashuv instituti sifatidagi tarbiyaviy funksiyalari, jamiyatning shaxs kamolotiga ko‘rsatuvchi ijtimoiy-madaniy ta‘siri hamda ularning uzviy hamkorligi asosida barkamol avlodni shakllantirish omillari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari farzand tarbiyasini tashkil etishda kompleks va tizimli yondashuv muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *farzand tarbiyasi, oilaviy tarbiya, ijtimoiylashuv, oila va jamiyat integratsiyasi, shaxs kamoloti, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik hamkorlik, ijtimoiy muhit.*

Farzand tarbiyasi-har bir jamiyatning kelajagi uchun muhim bo‘lgan jarayon hisoblanadi. “Farzand tarbiyasida oilaning va jamiyatning roli”- deganda, oilaning va jamiyatning bir birini to‘ldiradigan, bir butun sifatida farzand tarbiyasiga ta‘sir qiladigan roli nazarda tutiladi. Ya‘ni oila tarbiyasi va jamiyat ta‘siri alohida emas, balki bir birini qo‘llab, farzandning sog‘lom, barkamol shaxs sifatida yetishishda birlashadi.

Oila farzandning birinchi tarbiyaviy muhitidir. Ona va ota, akalar va singillar orqali bola axloqiy qadriyatlarni o‘rganadi. Masalan, ota-onaning mehr muhabbati va bag‘rikengligi bolada ishonch va hurmat tuyg‘ularini shakllantiradi. Ota-onaning tartib intizomga rioya qilishi, bilim olishiga qiziqtirishi, ya‘ni yaxshi natijalari uchun uni rag‘batlantirishi, odob axloq me‘yorlarini tushuntirishi bolaning ongli va ma‘suliyatli shaxs sifatida yetishishiga yordam beradi.

Oilada bolaga beriladigan tarbiya quyidagi jihatlardan iborat: axloqiy tarbiya, ya‘ni, hurmat, hallolik, mehr-shafqatni o‘rgatish; ma‘naviy tarbiya, ya‘ni, diniy qadriyatlar, an‘analar va odatlar bilan tanishtirish; aqliy va ijodiy tarbiya bo‘lib, bilim olishga, o‘rganishga, ijodiy faoliyatga undash.

Farzand tarbiyasida jamiyat ham muhim o‘rin tutadi. Maktab va bolalar bog‘chalari, do‘stlar muhiti, madaniy va sport tadbirlari bola rivojida katta ahamiyatga ega. Jamiyat bolani turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutishni o‘rgatadi, vaziyatlarda o‘zini tutishini o‘rgatadi, muomala madaniyatini shakllantiradi.

Shuningdek, jamiyat orqali farzand milliy va madaniy qadriyatlarni qabul

qiladi. Masalan, bayramlar, bayramlar, an'anaviy tadbirlar va jamoaviy loyihalar bolada milliy o'zlikni his qilishni rivojlantiradi. Yaxshi tashkil etilgan jamiyat, xavfsiz va ijobiy muhit yaratish orqali bolani ijobiy tarbiya bilan ta'minlaydi.

Oila va jamiyatning roli alohida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi hisoblanadi. Agar oila tarbiyasi bilan jamiyat qadriyatlari uyg'unlashsa, farzand sog'lom va barkamol shaxs bo'lib yetishadi.

Farzand tarbiyasida oila va jamiyatning roli har doim ham aniq va oldindan belgilangan holatga bog'liq emas. Ba'zan qushlar kabi, ham oiladagi sharoitga qarab o'zini shakllantirmaydi. Ya'ni “qush uyasida ko'rganini qiladi” degan maqol har doim ham hayotimizga to'g'ri kelavermaydi. Ayrim hollarda nomaqbul yoki tarbiyaga e'tiborsiz oilalardan ham aqilli, yetuk shaxslar yetishib chiqadi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, bolaning tarbiyasiga nafaqat oila, balki jamiyatning ta'siri ham katta. Oilaning mehr-shafqati va tarbiyasi muhim bo'lsa-da, jamiyatdagi maktab, do'stlar muhiti, madaniy va ijtimoiy tajribalar farzandning shaxs sifatida rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Farzand tarbiyasida oila va jamiyat roli haqida Safarova S.O. Nosirova U.A.[2025] maqolasida oilaning bolani tarbiyalashdagi asosiy o'rni va jamiyatning umumiy ta'siri tahlil qilingan. Unda oilaning shaxs tarbiyasidagi asosiy omil ekanligi va jamiyatning ijtimoiy ko'nikma shakllanishdagi muhimligi ta'kidlangan. Oila – bolaning birinchi muhitidir. Jamiyat esa bolaga ijtimoiy rol, odob-axloq me'yorlari va madaniy tajriba taqdim etadi. Oila va jamiyatning uyg'unligi haqida ta'kidlab o'tgan.

Albatta farzand jamiyat ustuni, poydevori va kelajagi hisoblanadi. Ota-onalar farzand uchun tarbiyani nafaqat uyida balki, tashqi muhit jamiyatda ham qanday muhim jihatlari borligini ko'rib chiqishlari kerak. Bola tarbiyasida faqat bolaga emas, balki ota-onalarga ham ahamiyat berishimiz kerak. Ya'ni oila qurishda yoshlar bunga jismonan, ruhan tayyorligi emas, balki ilmiy ma'naviy jihatdan oila qurishga tayyor ekanligiga e'tibor qaratishlari kerak. Ya'ni farzandning baxti kamoli faqat yosh oila qurib tezroq farzand ko'rishda emas. Balki komil inson bo'lib yetishishda katta ahamiyatga ega.

Yakubov O.T.[2025] o'z maqolasida ota-onalar farzandning tarbiyasida ijtimoiy ko'nikmalar, madaniy qadriyatlar va axloqiy ma'suliyatlarni shakllantirishda faol bo'lish haqida ilmiy dalillar keltiriladi.

Ota-onalar tarbiya jarayonida bolaga namunalar ko'rsatishlari kerak. Bola tarbiyasida psixologik jihat va ruhiy holatlarga ham e'tibor qaratishimiz kerak. Bunda “bola ota-onaning shaxsiy namunasini kuzatadi va shundan tarbiya oladi” degan fikri bir qarashdan to'g'ri bo'lsada bunga qo'shimcha sifatida bola aksincha jamiyatdan ya'ni maktabdan, do'stlari, tanishlaridan, ko'cha kuydan o'z dunyo qarashlarini shakllantirib boradi.

Farzand tarbiyasida oila va jamiyatning roli o'ta muhim va bir-birini to'ldiruvchi hisoblanadi. Oila bolaning birinchi maktabi sifatida unga axloqiy qadriyatlar, mehr-muhabbat o'rgatiladi.

Maqolada ko'rsatib o'tilgandek farzand tarbiyasida faqat oila muhiti yetarli emas, jamiyat bilan uyg'unlikda tarbiya berish bolaning barkamol va ma'suliyatli shaxs sifatida yetishishga xizmat qiladi.

Farzand tarbiyasi ko'p omilli va murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, uning samaradorligi oila va jamiyatning o'zaro uyg'un hamkorligiga bevosita bog'liqdir. Oila bolaning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti sifatida unda axloqiy me'yorlar, ma'naviy qadriyatlar hamda shaxsiy fazilatlarining shakllanishiga asos yaratadi. Jamiyat esa mazkur jarayonni kengaytirib, bolaga ijtimoiy tajriba, kommunikativ ko'nikmalar va madaniy identifikatsiyani egallash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila va jamiyatni alohida-alohida tarbiyaviy institut sifatida emas, balki o'zaro bog'liq va integrativ tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ularning uzviy hamkorligi farzandning intellektual, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydi. Aksincha, ushbu tizimlar o'rtasidagi nomuvofiqlik tarbiya samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois farzand tarbiyasini tashkil etishda oilaviy tarbiya, ta'lim muassasalari hamda ijtimoiy muhitning hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan kompleks pedagogik yondashuvni joriy etish zarur. Mazkur yondashuv jamiyatning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish hamda barkamol avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarova, S.O., Nosirova, U.A. The role of the family and society in the education and formation of safe behavior in children and adolescents // European International Journal of Pedagogics. – 2025.
2. Yakubov, O.T. Farzand tarbiyasida ota-onaning asosiy vazifalari va funksiyalari // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila xalqaro ilmiy jurnali. – 2025.
3. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, nashr yili ko'rsatiladi.
4. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
5. Musurmonova, O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 240 b.
6. Hasanboyeva, O., To'raqulov, X., Pedagogika. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 320 b.
7. Mudrik, A.V. Sotsialnaya pedagogika: uchebnik dlya studentov. – Moskva: Akademiya, 2017. – 368 s.
8. Kon, I.S. Sotsiologiya lichnosti. – Moskva: Politizdat, 1987. – 383 s.
9. Bronfenbrenner, U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.

